



Article Information

Article Type: Research Article

This article was checked by iThenticate.

Doi Number: <http://dx.doi.org/10.17121/ressjournal.3716>

ArticleHistory:

Received

22/09/2025

Accept

29/11/2025

**Available
online**

30/11/2025

**THE SEMANTICS AND LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF
FOLK PROVERBS IN THE UZBEK O'G'UZ DIALECTS
O'ZBEK O'G'UZ SHEVALARIDAGI XALQ MAQOLLARINING
SEMANTİKASI VA LINGVOMADANIY TAHLİLİ¹**

Muyassar Saparniyazova²
Jurayeva Nazokat Gulmuradovna³
Norbayeva Shukurjon Xayitbayevna⁴
Serhat Küçük⁵
Ümit Özgür Demirci⁶
Aysun Soyer⁷
Hüseyin Kaba⁸

Abstract

Representatives of the Uzbek Oghuz dialect live in the Ellikkal'a and Tortkul districts of the Khorezm region, the Republic of Karakalpakstan, the Alot and Karakul districts of the Bukhara region, the Tashkhovuz villages of Turkmenistan, and the Karnok, Iqan, Karabulak, Karamurt, and Mankent villages of Kazakhstan. This article will focus on the Khorezm Oghuz, who are a large and main part of the Uzbek Oghuz dialect. The presence of various ethnic groups in the territory of Khorezm in history naturally left a certain mark on the anthropological type, customs, and language of the local population, especially in proverbs that reflect the national character and way of thinking of the people. This phenomenon is especially evident in dialect proverbs. There is no nation in the world that does not have its own proverbs. The national characteristics and identity of the people are clearly reflected in proverbs. Proverbs in the Khorezm dialect should also be studied as an integral part of the proverbs of the Turkic peoples. This article discusses the proverbs used in the Khorezm Oghuz language, their semantics and national and cultural characteristics.

Keywords: dialect, Uzbek Oghuz dialect, folk proverbs, semantic analysis, linguistic and cultural analysis.

¹ Mazkur maqola Xalqaro Turk akademiyasining O'zbek-o'g'uz shevalarining dialektologik lug'atini yaratish (Creating a Dialectological Dictionary of Uzbek-Oguz Dialect) loyihasi doirasida tayyorlangan. - Bu makale, Uluslararası Türk Akademisinin (Turkic Academy) Özbek- Oğuz Ağız Sözlüğünün Oluşturulması Projesi (Creating a Dialectological Dictionary of Uzbek-Oguz Dialect) kapsamında hazırlanmıştır.

² Prof. Dr., Tashkent/O'zbekiston, Alfraganus university, m.saparniyazova@afu.uz ORCID: 0000-0001-8612-0289
³ Candidate Of Philological Sciences, Associate Professor, Tashkent/O'zbekiston, Alfraganus University, n.jurayeva@afu.uz ORCID: 0000-0001-6269-6291

⁴ filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b., Urganch/O'zbekiston, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, norbayeva75@mail.ru ORCID ID: 0000-0002-0629-1107

⁵ Doç.Dr., Sakarya Uygulamalı Bilimler Üniversitesi, Sakarya/Türkiye. serhatkucuk@subu.edu.tr, ORCID: 0009-0000-7108-9602

⁶ Doç. Dr., Düzce Üniversitesi, Düzce/Türkiye. umitdemirci41@gmail.com ORCID: 0000-0003-4384-8194

⁷ Dr., Düzce/Türkiye, aysunsoyer.as@gmail.com ORCID: 0000-0002-9638-8315

⁸ Dr., Milli Eğitim Bakanlığı, Düzce/Türkiye. kaba5559@gmail.com ORCID: 0000-0001-7682-6261

Özet

Özbek O'guz lehçesinin temsilcileri, Harezm bölgesinin Ellikkal'a ve Tortkul ilçelerinde, Karakalpakistan Cumhuriyeti'nde, Buhara bölgesinin Alot ve Karakul ilçelerinde, Türkmenistan'ın Taşhovuz köylerinde ve Kazakistan'ın Karnok, Iqan, Karabulak, Karamurt ve Mankent köylerinde yaşamaktadır. Bu makale, Özbek O'guz lehçesinin büyük ve önemli bir parçası olan Harezm O'guzlarına odaklanacaktır. Tarihte Harezm topraklarında çeşitli etnik grupların varlığı, özellikle halkın ulusal karakterini ve düşünce tarzını yansıtan atasözlerinde, yerel halkın antropolojik tipi, gelenekleri ve dili üzerinde doğal olarak belirli bir iz bırakmıştır. Bu olgu, özellikle lehçe atasözlerinde belirgindir. Dünyada kendi atasözleri olmayan hiçbir millet yoktur. Halkın ulusal özellikleri ve kimliği atasözlerinde açıkça yansıtılır. Harezm lehçesindeki atasözleri de Türk halklarının atasözlerinin ayrılmaz bir parçası olarak incelenmelidir. Bu makalede Harezm O'guzcasında kullanılan atasözleri, anlamsal yapıları ve ulusal ve kültürel özellikleri ele alınmaktadır.

Anahtar Kelimeler: Lehçe, Özbek O'guz lehçesi, halk atasözleri, anlamsal analiz, dilbilimsel ve kültürel analiz.

Annotatsiya

O'zbek o'g'uz lahjasi vakillari Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a va To'rtko'l tumanlarida, Buxoro viloyatining Olot, Qorako'l tumanlarida, Turkmanistonning Toshhovuz, Qozog'istonning Qarnoq, Iqon, Qorabuloq, Qoramurt, Mankent qishloqlarida istiqomat qiladilar. Ushbu o'rinda o'zbek o'g'uz lahjasining yirik va asosiy qismi bo'lgan Xorazm o'g'uzlari xususida so'z yuritiladi. Tarixda Xorazm hududida turli-tuman etnik guruhlarining mavjud bo'lishi, tabiiy, mahalliy aholining antropologik tipida, urf-odatida, tilida, ayniqsa, xalqning milliy xarakteri, tafakkur tarzini namoyon etuvchi maqollarda ham ma'lum iz qoldirgan. Sheva maqollarida bu hodisa ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Dunyoda o'z maqollariga ega bo'lmagan xalqning o'zi yo'q. Xalqning milliy xususiyatlari va o'zligi maqollarida yaqqol namoyon bo'ladi. Xorazm shevasidagi maqollar ham turkiy xalqlar maqollarining tarkibiy qismi sifatida o'rganilishi zarurdir. Ushbu maqolada Xorazm o'g'uzlari tilida qo'llangan maqollar, ularning semantikasi va milliy-madaniy xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: lahja, o'zbek o'g'uz lahjasi, xalq maqollari, semantik tahlil, lingvomadaniy tahlil.

KIRISH

Tilimizning boyib borishi uchun jiddiy manbalardan biri xalq tili – shevalardir. Xalq tilining hududiy namunalari bolmish shevalar benihoya nodir boylik, ular adabiy tilimizning asosiy boyish manbalaridan biridir. Shevalarga oid so'zlarni to'plash, chuqur o'rganish, lisoniy-tarixiy jihatdan tavsiflash til va xalqning murakkab tarixini tadqiq etishda muhim omillardan hisoblanadi. Zero, jonli shevalar yozma adabiy manbalarda, shuningdek, hozirgi o'zbek adabiy tilida ham uchramaydigan ko'plab so'z va iboralar, ba'zi grammatik shakllarni saqlab qolganlarki, ularni izsiz yo'qolib ketmasligi uchun harakat qilmog'imiz lozim. Chunki ularni asosli ravishda ilmiy tahlil qilish tilimizda juda ham muhim lisoniy xulosalar chiqarishga zamin yaratadi. Ona tilizning uzoq moziydagi shakli hamda shakl-u shamoyilini tasavvur qilishda tadqiqotchilarga bebaho ashyoviy dalillar beradi. Shu bilan bir qatorda, ular “qadimgi yozma yodgorliklarni tushunish va lisoniy tahlil etishda noyob qo'llanma vazifasini ham ado etadilar” (Melioransky, 1900:3). O'g'uz dialektida bugungi kunda esa Yugoslaviya, Moldova, Ruminya, Makedoniya, Bolgariya, Gretsiya, Turkiya, Suriya, Iroq, Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston, Eron, Turkmaniston, Avfg'oniston va O'zbekiston davlatlarida so'zlashiladi. Umumiy hisobda bu dialektida so'zlashuvchilar soni 120 million kishi atrofida bo'lib, ozarbayjoncha, turkcha va turkman o'g'uzlari bu dialektida so'zlashuvchilarning 95 % ini tashkil qiladi. Qadimdan o'guzlar muhim qabilalardan biri bo'lgan. Ammo o'g'uz shevalarining ilk davrlari tarixiga oid bilimlarimiz ancha cheklangan. VI-VIII asrlardagi yozma manbalarda o'g'uzlarga

oid ma'lumotlar deyarli yo'q. Chunki bu davrlarda o'g'uzlar alohida davlat tuza olmaganligi, ularning tarix sahnasidan o'rin olmaganligiga sabab bo'lgandir balki. O'zbek o'g'uz lahjasi vakillari Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a va To'rtko'l tumanlarida, Buxoro viloyatining Olot, Qorako'l tumanlarida, Turkmanistonning Toshhovuz, Qozog'istonning Qarnoq, Iqon, Qorabuloq, Qoramurt, Mankent qishloqlarida istiqomat qiladilar. Biz ushbu maqolada o'zbek o'g'uz lahjasining yirik va asosiy qismi bo'lgan Xorazm o'g'uzlari xususida so'z yuritamiz. Xorazm aholisining etnik tarkibiga nazar solinsa, qadimdan murakkab va xilma-xil bo'lganligini ko'rish mumkin. Tarixiy etnografik adabiyotlarda bu fakt juda ko'p qayd qilingan. Ma'lumki, Xorazm hududida qadimdan madaniyat taraqqiyoti e'tibori bilan turli bosqichda bo'lgan juda ko'p urug'-qabilalar, xalqlar yashaganlar. So'nggi VI-VII asr davomida Xorazm aholisining asosiy ko'pchilik qismini o'zbek o'g'uzlari tashkil qilgan. Qadimdan shu hududda yashagan va eron xalqlariga mansub bo'lgan qadimgi xorazmliklar, manbalarning xabar berishicha, XIII asrga kelib o'z tillarini yo'qotganlar va o'g'uzlar bilan aralashib ketganlar (Samoiloviç, 1929:4). Ba'zi manbalar esa VIII-X asrlarda Xorazm hududida olonlar va oslar yashaganliklarini ko'rsatadi. Bu yerlarda tarixda arablar va tojiklar ham yashaganliklarini esga olsak, Xorazm aholisi etnik tarkibi naqadar murakkab bo'lganligini bilishimiz mumkin. Tarixda Xorazm hududida turli-tuman etnik guruhlarining mavjud bo'lishi, tabiiy, mahalliy aholining antropologik tipida, urf-odatida, tilida, ayniqsa, xalqning milliy xarakteri, tafakkur tarzini namoyon etuvchi maqollarda ham ma'lum iz qoldirgan. Sheva maqollarida bu hodisa ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek shevalarini o'rganish qadimgi davrlarga borib taqaladi. O'zbek shevalarining ilk tadqiqotchisi sifatida haqli ravishda Mahmud Koshg'ariy e'tirof qilishimiz mumkin. Uning "Devonu lug'otit turk" asarida 24 ta o'g'uz qabilalari nomlari keltirilgan bo'lib, ular ichida "Turk"lar va "O'g'uzlar" tili tizimli ravishda qiyoslanib boriladi (Koshg'ariy, 2016).

O'zbek o'g'uz lahjasiga oid xususiyatlar bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Chunonchi, G'ozim Olim Yunusov, "O'zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba", V.V.Reshetov "O'zbek dialektologiyasi", F.Abdullayev, "O'zbek tilining o'g'uz lahjasi", "O'zbek tilining Xorazm shevalari", Y.Jumanazarov, "Hazorasp shevasining morfologik xususiyatlari", A.Ishaev Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari", A.Ahmedov, "O'zbek adabiy tili tarixida o'g'uz unsur va ko'rinishlarining qo'llanishi" va boshqalar mazkur lahjani tadqiq etgan. O'g'uz shevasiga oid xususiyatlar ayrim darslik, qo'llanma va tadqiqotlarda ham yoritilgan.

MUNOZARA VA NATIJALAR

Xorazm o'zbeklarining tili haqida, ayniqsa, o'g'uz shevalari haqida, eng ilk ma'lumotni mashhur venger olimi Herman Vamberi beradi. U o'zining "Sadataische Sprachstdien" nomli asarida Xiva shevasiga xos deb talqin qilgan ko'pgina grammatik faktlarga to'xtaladi. "Shaharlarda, sartlar yashaydi, o'zbeklarning tilidan farq qiladi. Sartlarning tilida arab va fors tillaridan kirgan so'z va iboralar o'zbeklarnikiga qaraganda ko'proq; urg'uni ishlatishda keskin farq seziladi, shuningdek, qishloq aholisi tovushlarni qattiq aytadi, shaharliklar yumshoq aytadilar"- deb yozadi (Vamberi, 1867:5).

Mojor olimi Herman Vamberi nomini butun dunyo biladi. Uning murakkab shaxsligi, aslida kimligi to'g'risida ham turlicha fikrlar bor. Bu haqda bir qancha maqolalar ham yozilgan (Ismatullayev, 1993: 149-162).

Tarixdan ma'lumki, Herman Vamberi 1863-1864-yillarda O'rta Osiyoga keladi va bu yerda ko'rgan-kechirganlarini maxsus kitob holida nashr qildiradi. U sayohati davomida o'lkamiz tarixi, xususan, adabiy-madaniy asarlari, xalq og'zaki ijodi namunalari ham qiziqadi. Imkoni doirasida manbalarni yig'ib, o'zi bilan olib ketadi. Mana shu manbalarga asoslanib, Herman Vamberining "O'rta Osiyoga sayohat," "Chig'atoy tili saboqlari" nomli kitoblari bosilib chiqadi. Vamberi "Chig'atoy tili saboqlari" kitobining "Xrestomatiya" qismida bundan roppa-rosa bir yarim asr oldin, ya'ni 1867-yilda xalq og'zaki ijodining eng kichik janrlaridan biri – o'zbek maqollaridan 112 tasining aslini o'zbek-arabiy hamda lotin imlosida, shuningdek, uning davomidan olmon tiliga tarjimasini beradi (Öke, 1983). Ushbu maqollar asarning 45-58-sahifalaridan o'rin olgan.

H.Vamberining o'zbek maqollarini olmon tiliga tarjima qilgani va bu manbaning XX asrda, aniqrog'i, 1975-yilda ham qayta nashr bo'lganining o'ziyoq bu asarning qimmatli manba ekanligini dalillaydi. Chunki qaysi o'zbek maqoli tarjima qilingani, ularning mavzu yo'nalishi va tarjimaning originalga mosligi, til xususiyatlari soha mutaxassislarini qiziqtirishi tabiiy. Eng ahamiyatlisi shundaki, ushbu maqollar Xorazm shevalaridan yozib olinganligi bilan mavzuga aloqadorlik kasb etadi. "Afsuski, avtor bu maqollarni "adabiyalashtirib" bergan, shuning natijasida Xorazm shevalarining til xususiyatlari ko'p jihatdan o'z aksini topmagan" (Brockhaus, 1867: 358).

Vamberi o'zbek maqollarini xalq orasida yurib to'plagan, tarjimada ularning mazmunini imkoni boricha to'g'ri bayon qilishga harakat qiladi.

Buni quyidagi misollar asosida ko'rish mumkin:

"Bosh bo'lmasa gavda losh".

"Do'st yig'latur, dushman kuldirur".

"O'luk arslondin, tirik sichqon yaxshidur".

"Manmanlik shaytong'a yarashur".

"Yaxshilik et, daryog'a tashla, baliq bilur, Baliq bilmasa, Xoliq bilur".

"Yaxshi birla yursang, yetarsen murodg'a, Yomon birla yursang, qolursen uyotg'a".

"Tez so'zlar tez pishmon bo'lar".

"Bolani yoshdin, xotunni boshdin".

"To'yg'a borsang, to'yib bor". Bunda mehmonga borish odobi, mehmondorchilik madaniyati, to'yda to'ygan odamdek odob saqlab o'tirish nazarda tutiladi, bizningcha. Chunki maqolning Vamberiga odamlar aytishni esidan chiqargan yoki aytgan taqdirda ham uni yozib olishni unutilgan *"To'y to'ningni kiyib bor"* degan ikkinchi qismi hali- hanuz xalq orasida yashab keladi. Maqolning ana shu davomida ham chiroyli kiyinib, orasta holda to'yga borish madaniyati nazarda tutiladi.

Yana bir misol: *"Lo'lining eshagini sug'or, pulini ol".*

Olmon tiliga tarjima qilingan bu maqollarda Xorazm o'g'uz shevalariga xos unsurlar ham ko'plab uchraydi. Jumladan, *"Suv ko'rmaguncha etik chechma"*. Shevadagi "chechma" so'zi adabiy tilda "yechma" tarzida ishlatiladi. *"Sovliqim boyliqim, xastaliqim manglayi qaroliqim"*. Bunday "manglayi qaroliq" Xorazm shevalarida "baxtsizlik, omadsizlik" ma'nosida ishlatiladi. Shuningdek, *"Oqajaq qon tomurda turmas", "Qozong'a yontoshsang, qarosi yug'ar, Yomong'a"*

yontoshsang, balosi yug'ar” kabi maqollar tarkibidagi “*oqajaq*”, “*yontoshsang*”, “*yug'ar*” kabi soʻzlar ham Xorazm shevalariga xosdir.

Herman Vamberi olmon tiliga tarjima qilgan maqollardagi bunday oʻziga xosliklarni ikki asosga koʻra tabiiy qabul qilish oʻrinli boʻladi. Birinchidan, maqollarni koʻproq oʻgʻuz lahjasiga mansub odamlar orasidan yozib olgan Vamberi soʻzboshida: “Boshida berilgan maqollar asosan bevosita turmushdan olingan boʻlib, ularning koʻpchiligi bugungi kunda ham usmonlilar orasida qoʻllanib kelayotganini taʼkidlash shart boʻlmasa kerak”, deb yozadi (Vambéry, 1867: 43). Ikkinchidan, Vamberining hamrohi, hajga borish niyatida unga ergashib yoʻlga chiqqan madrasa tolibi Mulla Isʼhoq qoʻngʻirotlik edi (Eltazarov, Internet manbalari). Maqollarni tarjima qilayotganida Vamberi yonidagi oʻsha “tirik lugʻat”dan unumli foydalangan boʻlishi ehtimoldan uzoq emas.

H.Vamberi tomonidan tarjima qilingan maqollar oʻzbek xalqi orasida ming yillardan beri yashab kelmoqda. Hozirgi kunda odamlar keng ishlatadigan chuqur maʼnoli “Ochliq neni yedirmas, Toʻqluq neni dedirmas” maqolining ham Vamberida tarjimasi bor. Muhimi, aynan shu maqol Koshgʻariyning “Devon”ida ham mavjud (Koshgʻariy, 2016: 71).

Xullas, Xorazm shevalariga xos boʻlgan maqollarni boshqa chet tillar, xususan, olmon tiliga tarjima qilishda, uni jahonga tanitishda Herman Vamberining ulkan xizmatlari borligini alohida taʼkidlamok lozim.

Xorazm shevalari tadqiqida taniqli tilshunos olim Yozef Budensning ham xizmatlarini aytib oʻtmoq joiz. 1865-yilda Vengriya Fanlar akademiyasining “Tilshunoslik xabarları” jurnalida olimning “Xiva tatarchasi” nomli maqolasi eʼlon qilinadi. Maqola oʻzbek tilining Xiva shevasini yoritishga qaratilgan boʻlib, muallif maqolaning avvalida “Xivadagi oʻzbek tilidan namuna sifatida turk-tatar tillarini oʻrganishga qiziquvchilar uchun” deb yozilganini qayd etadi.

Y.Budensning mazkur maqolasida “tatarcha” termini ishlatilganda umumiy turk tili nazarda tutilgan. Shuni alohida qayd etmoq lozimki, mazkur ishni amalga oshirish jarayonida muallif biror marta ham Xorazmda boʻlmagan va xalq ichida yurib, matnlar yozib olmagan. Mana shularga asoslanib, tadqiqotni umumiy maʼlumot beruvchi axborot sifatida qabul qilish mumkin.

Olim dialektal materiallarni bayon qilishda unga yaqin oʻrtogʻi Vamberining Yevropaga oʻzi bilan olib kelgan shogirdi Mulla Isʼhoqning xizmati alohida ekanligini aytib oʻtadi. Y.Budens ushbu maʼlumotlarni undan yozib olganligini hamda Mulla Isʼhoq tomonidan qilingan tarjimalardan foydalanganini qayd etadi.

“Xiva tatarchasi” maqolasi qariyb 62 sahifadan tashkil topgan boʻlib, oʻzbek tiliga oid matnlar va unga muallif tomonidan berilgan lingvistik maʼlumotlardan iborat. Maqolaga asos boʻlgan oʻzbek tili, xususan, Xiva shevasiga oid matnlar – maqol, topishmoq, ertak, hikoyatlar, shuningdek, mojar hamda usmonli turkchasidan oʻzbekchaga qilingan tarjimalardan iborat.

Qizigʻi, XIX asr venger hamjamiyati tomonidan yaxshi kutib olingan mazkur maqoladagi maqollarning qiymati hozirgacha yoʻqolgani yoʻq. Maqollar muallif tomonidan 3 qismga ajratilgan oʻzbekcha matnlarning birinchisi – “Maqol va topishmoqlar” (Naql, ojun hikâjet) qismiga kiritilgan boʻlib, jami 43 ta maqolni oʻz ichiga oladi. Olim maqollarni lotin yozuviga asoslangan transkripsiyada va uning tagidan venger tilidagi tarjimasi bilan beradi. Ulardan baʼzilarini misol tariqasida keltiramiz:

Odam olasi ichida, hayvon olasi tashida.

Adam alasī içinde, hejvân alasī tîşında.

Ushbu maqolning hozirgi kunda ham Xorazm shevalarida “Adamnî alasī içindâ, hâjvannîkî deşindâ” (Norbayeva, 2022: 58) tarzida qoʻllanishini kuzatamiz.

Qozonga yaqinlashsang, qorasi yuqar, yomonga yaqinlashsang, balosi yuqar.

Qazanya jantaşsañ, qarasī juyar, jamanya jantaşsañ, belâsi juyar.

Mazkur maqol “Xorazm shevalaridagi maqol va iboralarning qisqacha izohli lugʻati”ga ham kiritilgan boʻlib, “*Qazan jana barsaŋ, qarasī juqadi, jamannī janñna barsaŋ jarasī*” (Norbayeva, 2022: 90) tarzida ishlatilgan.

Ichib toʻymagan yalab toʻymas. (Içip tojmayan jalap tojmas)

Onasini koʻr, qizini ol, qorasini koʻr, boʻzini ol. (Inesini kör, qizîn al; qaresini kör, bözjin al).

Uyimda yoʻqdir goʻjalik, koʻnglim istaydi xoʻjalik. (Öjümde joqtur göçelik, könlüm istidé xoʻjalıq).

Ochlik neni yedirmas, toʻqlik neni dedirmas. (Açlıq nini jidirmes, toqluq nini didirmes).

Yigʻlagan bolaga koʻkrak tutilar. (Jiylamayan balaya iemček qajda?

Shoshilgan ishga shayton qoʻshilar. (Qüstanyan işke şejtân qoşulur).

Qorani yuvsang oq boʻlmas, yomon har qiz yaxshi boʻlmas. (Qaranī jusañ, aq bolmas, jaman her qiz jaxşı bolmas).

Boʻlar odam oʻn beshida bosh boʻlar, boʻlmas odam qirqqa kirsas, yosh boʻlar.

(Bolur adam on bişinde baş bolur, bolmas adam, qırqqa kirse, jaş bolur).

Bol tutgan barmogʻini yalar. (Bal tutqan barmayını jalar).

Mazkur maqol ham hozirgi Xorazm shevalarida faol qoʻllanishdadir: *Bal tutqan barmaqinī jalar* – bol tutgan barmogʻini yalaydi (Q.kpr., Urg., Xnq., Xiv., Y.bzr., Bgʻt) (Norbayeva, 2022: 69).

Et yogʻda pishmas, xamir suvda pishmas. (Et jayda pşmes, xamir sūda pşmes).

Xorazm shevalariga xos boʻlgan mazkur maqoldagi *et* soʻzi adabiy tildagi goʻsht soʻzi oʻrnida qoʻllanilgan.

Demak, Xorazm shevalari tadqiqida Yozef Budensning “Xiva tatarchasi” nomli maqolasi qimmatli manba boʻla oladi.

Xalq maqollari ajdodlarimizning asrlar osha yetib kelgan hayotiy tajribasi haqidagi xulosalari va hukmlarining ixcham, taʼsirchan, aniq va loʻnda ifodasidir. Ayni zamonda maqollar mahalliy dialektlar va shevalarning xususiyatini oʻrganish uchun ham muhim manba vazifasini bajaradi. Maqollar nafaqat xalqniig donoligi, hayot tarzi, orzu-umidi, urfodati, dunyoqarashini ifoda qiladi, balki uning tilini, soʻzlarning maʼno imkoniyatlari naqadar kengligini, toʻgʻrirogʻi, shevasining xususiyatini ham koʻrsatadi.

Dunyoda oʻz maqollariga ega boʻlmagan xalqning oʻzi yoʻq. Xorazm shevasidagi maqollar ham turkiy xalqlar maqollarining tarkibiy qismi sifatida oʻrganilishi zarurdir. Xorazm shevasidagi maqollar ham vatanparvarlik, mehnatsevarlik, axloq-odob, axloqsizlik, yaxshilik va yomonlik, doʻstlik, tadbirkorlik, uddaburonlik, sogʻlik, ijtimoiy munosabatlar, oilaviy turmush va qoʻshnichilik munosabatlari mazmunini aks ettiradi. Sheva materiallariga asoslanib, maqollarning qoʻllanish doirasini hisobga olib, ularni ikki guruhga boʻlish

mumkin: - faqat sheva doirasida qo'llanadigan maqollar; - adabiy tilda ham, shevada ham qo'llanadigan maqollar.

Sheva doirasida qo'llanadigan maqollarga o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydigan, "O'zbek xalq maqollari" kitobiga kirmagan maqollar mansubdir. Masalan: *Giyävim jaxši* - qizimni aytqanini ätädi, o'glim yaman - xatiniñni aytqanini ätädi (Kiyovim yaxshi - qizimning aytganini qiladi, o'glim yomon - xotiniñning aytganini qiladi); *Günim uçun gündäšimni balasini allaliman* (Kunim tinch bo'lishi uchun yoqmagan insonim, hatto kundoshimning bolasini ham erkalayman); Ikki adam bir adamni xudayi (Ikki odam bir odamga qaraganda kuchliroq ma'nosida). Xorazm o'g'uz shevalaridagi maqollarni semantik tahlil qilib, quyidagi mavzuiy guruhlariga ajratishni ma'qul ko'rdik:

- mehnatsevarlik va dangasalik: *Köp otirgan kötga yaqar* (Ishyoqmas, dangasa insonlar hech kimga yoqmaydi); *Qaqqildayan toviq, doğmın qalmas* (Qaqoqlagan tovuq tug'may qolmas); *Qarri qiz yäsäninča toy ötär* (Qari qiz yasanguncha, to'y tamom bo'ladi); *Yatqan ökizä yem joq* (Yotgan ho'kizga yem yo'q);

- ijtimoiy munosabatlar: *Ikki at däpišsä, ortada ešäk ölädi* (Ikki ot tepishsa, o'rtada eshak o'ladi); *Eläm dindi, elaman källäm dindi* (El ham tinchidi, elomon boshim ham tinchidi); *Qayin ešiki qattı ešik, qatlamalardanam datlı ešik* (Qayinning eshigi qattiq eshik, qatlamalardan ham totli eshik); *Apañ bilsä heč kim bilmidi, qoñışñ bilsä hämmä bilädi* (Siringni onang bilsa, hech kimga aytmaydi, lekin qo'shning bilsa, hammaga aytadi);

- yaxshilik va yomonlik: *Yaman bilän yatma, azanda türüb aytma* (Yomon bilan yotma, ertalab turib aytma); *Yatğana yılan deymäs, duryana čıyan* (Yotganga ilon tegmas, turganga chayon);

- saxiylik: *Qizdi tilävi qışır qalmas* (Qiz bolaning tilagi ushalmasdan qolmaydi);

- baxillik: *Dilingännän dilängän yaman* (Tilingandan tilangan yomon, ya'ni jabr ko'rgan odamdan tilangan, ta'ma qiluvchi kishi yomonroqdir); *Könä šalını sovırma // Könä xırmannı sovırma* (Eski gapni qo'zg'ama);

- teng va tengsizlik: *Görvädik arvañı, keyni döşik torväñi* (Ko'rgan edik aravangni, orqasi teshik xaltangni, ya'ni nomi ulug', suprasi quruq ma'nosida); *Görmin görmin görgän balam, yüräki yarılıb ölgän balam* (Ko'rmay- ko'rmay ko'rgan bolam, yuragi yorilib o'lgan bolam, ya'ni yo'qchilikdan to'qchilikka chiqqan odam holati ifodalangan);

- donolik va nodonlik: *Ešäk minib tuyaq teyini gormä, tüyä minib uzaqni gözlä* (Eshak minib, tuyoq tagini ko'rma, tuya minib olis-olisni ko'zla); *Ismaloqda is čıqsa šäna qarap juğırädı* (Ismaloqda hid chiqsa, shu tarafga qarab yuguradi); *Jilliya el bär, qolına bel bär* (Tentakka el ber, qoliga bel ber, ya'ni tentakni maqtasang, hamma buyurgan ishingni qiladi ma'nosida);

- farosatsizlik: *It boynına gävhar taqsan, itäm yığlar, gävharäm* (Itning bo'yniga gavhar taqsang, it ham, gavhar ham yig'laydi, ya'ni itga gavhar taqish yarashmaydi ma'nosida); *Nigin yetdi körä, yügürüb ötdi tö:rä* (Imkon tegsa ko'rga, yugurib o'tadi to'rga. Nigin-imkon ma'nosida); *Özi pasmanda bosa:m könli asmanda* (O'zi farosatsiz bo'lsa ham, ko'ngli osmondadir);

- odob va odobsizlik: *Indämayännän üydäy bälä čkädı* (Indamagan insondan ko'p balo chiqadi); *Ädännän gälib tör mäniki di:sän* (Hammadan keyin kelib, to'rga o'tishga harakat qiladigan odamlarga nisbatan ishlatiladi);

- oqibat va oqibatsizlik: *Qirg' adam bir ya:na, qing'ir adam bir ya:na* (Qirg' odam bir tarafda, qing'ir, o'jar odam bir tarafda); *Yaxsi xotin arpadan kabob pishiradi*; *At olsä göş, arva sinsa o'tin* (Ot o'lsa go'sht, arava sinso o'tin bo'ladi).

- birdamlik va totuvlik: *Ikki adam bir adamni xudayi* (Ikki odam bir odamga qaraganda kuchliroq ma'nosida); *Köp äl kömäkä yaxsi, az äl bäräkä jaxsi* (Ko'p qo'l ko'mak uchun yaxshi, ko'pchilik bilan muammo tez hal bo'ladi);

- qarindosh-urug'chilik: *Manlaj'eta urjak das'etam öz'etnan bölsin* (Peshonangga urmoqchi bo'lgan toshing ham o'zingniki bo'lsin, ya'ni birovdan hech narsa soramaslik kerak ma'nosida); *Minnim sässi, lekin käsip bilimmän* (Qarindoshim, yaqinim yomon deb undan voz kechib bilmayman, ma'nosida);

- ishonch va ishonchsizlik: *Taza bay'etannan qorq* (Yangi boyigan odamdan qo'rq); *Yer qatt' bosa, ökiz ökizdän görämiş* (Yer qattiq bo'lsa, ho'kiz ho'kizdan ko'rarmish);

- tadbirkorlik: *Häm xurma gärek, häm burma* (Bir vaqtning o'zida ikki narsaga erishmoqchi bo'lgan insonlarga nisbatan qo'llaniladi); *Pul' bän' ägzi oynar, pul' yoqn' gözzi oynar* (Puli borning og'zi o'ynar, puli yo'qning ko'zi o'ynar); *Söz källädä, un xaltada* (So'z boshda, un xaltada bo'ladi); *Vaxtdan utqan - baxtdan utqan* (Vaqtdan yutgan - baxtdan yutgan); *Zärärni yar'sinnan qaytmaqam fayda* (Zararning yarmidan qaytish ham foyda);

- do'stlik va dushmanlik: *Bürni bömasa, u gözzi b' gözzi dushman* (Agar burun bo'lmasa, ikki ko'zing ham bir-biriga dushman bo'ladi, ya'ni o'rtada murosaga keltiradiganlar bo'lmasa, do'stlar ham dushmanga aylanadi);

- shakl-shamoyil: *Arqadan qarasaj, särvi sänämdin, ald'innan qarasaj, qarri änäm'din* (Orqasidan qarasang, go'zal yosh qizlarga o'xshaydi, oldidan qarasang, qari buvinga o'xshaydi, ya'ni insonga bir ko'rishda baho berib bo'lmaydi ma'nosida).

XULOSA

Ko'rinadiki, xorazm o'g'uzlarining milliy xususiyatlari va o'zligi maqollarida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu maqollarni o'qisangiz, xalqning turmush tarzi, kundalik o'y-tashvishlari, elning dunyoqarashi va kechmishini ilg'aganday bo'lasiz. Ular nutqimizga ko'rk berib, uning ta'sirchanligini yana-da oshiradi.

Har bir maqol bir asarning mazmuniga teng kelishi mumkin, chunki ularning ba'zilari murakkab hodisalarning mohiyatini qisqa va ixcham jummalarda ifodalay oladi. Har bir maqol haqiqiy hayotdan olingan bo'lib, ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Maqollar tarbiya vositasi sifatida, so'zning sehrli kuchi orqali kishi ruhiyatiga tez ta'sir qilishi hamda ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirishda ijobiy omil bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Har bir xalq shevasi o'sha xalq madaniy meros va qadriyatlarining muhim tarkibiy qismi ekan, ularning leksik xususiyatlarini har tomonlama o'rganish soha rivojini ta'minlovchi muhim omillardan sanaladi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, shevalardagi xalq maqollari shu shevaning barcha xususiyatlarini o'rganish uchun faktik material bo'lish bilan birga xalq og'zaki ijodining boyligini, uning go'zalligini tasavvur etish imkoniyatini berishi bilan ham ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR

- Abdullaev, F. (1961). *Harezmi lehçeleri*. Taşkent: Fan.
- Abdullayev, F. (1964). *Özbek dilinin Harezmi lehçeleri*. Taşkent: Fan.
- Abdullayev, F. (1978). *Özbek dilinin Oğuz lehçesi*. Taşkent: Fan.
- Ahmedov, A. (2006). *Özbek edebi dilinin tarihinde Oğuz unsur ve kavramlarının kullanımı* (Yayınlanmamış doktora tezi). Semerkant Devlet Üniversitesi, Semerkant.
- Eltazarov, J. (t.y.). *Herman Vambéry'nin arkadaşı*. [İnternet kaynağı].
- Freiman, A. A. (1950). *Khorezmiyskiy yazyk*. Moskva.
- Ishaev, A. (1977). *Karakalpakistan'daki Özbek lehçeleri*. Taşkent: Fan.
- Ismatullayev, H. (1993). Vambéry bir bilim adamı mı yoksa casus mu? In *Komplo sanati* (Kitap 2, ss. 149–162). Taşkent: Bilim.
- Jumanazarov, Y. (1961). *Hazoraspi lehçesinin morfolojik özellikleri*. Taşkent: Fan.
- Kaşgari, M. (2016). *Sözlük-t-Türkçe* (Cilt 1). Taşkent: Mumtoz Soz.
- Koshgari, M. (2016). *Devonu dictionary-t-turkish* (Cilt 1). Taşkent: Mumtoz Soz.
- Melioransky, P. M. (1900). *Arap filolog o turetskom yazyke*. Sankt-Peterburg.
- Norbayeva, Ş., ve diğerleri. (2022). *Harezmi lehçelerinde atasözleri ve deyimlerin kısa bir açıklamalı sözlüğü*. Urgenç: Harezmi Yayınevi.
- Norbayeva, Ş., ve diğerleri. (2022). *Harezmi lehçelerinde atasözleri ve deyimlerin kısa bir açıklamalı sözlüğü* (s. 90). Urgenç: Harezmi Yayınevi.
- Norbayeva, Ş., ve diğerleri. (2022). *Harezmi lehçelerinde atasözleri ve deyimlerin kısa bir açıklamalı sözlüğü* (s. 69). Urgenç: Harezmi Yayınevi.
- Öke, M. K. (1983). *Armin Vambéry: English casus. Prof. Arminius Vambéry'nin gizli raporlarında II. Abdülhamid ve dönemi*. İstanbul: Üçdal Basım.
- Reshetov, V. V., & Shabdurahmonov, Sh. (1978). *Özbek lehçe bilimi*. Taşkent: O'qituvchi.
- Samoylovich, A. N. (1929). *Ocherki po istorii turkmenskoy literatury. Turkmeniya koleksiyonu*, 1, 133.
- Vambéry, H. (1867). *Čagataische Sprachstudien enthalend grammatilischen Umriss, Chrestomathie und Wörterbuch der čagatischen Sprache*. Leipzig: F. A. Brockhaus.
- Vambéry, H. (1867). *Čagataische Sprachstudien*. Leipzig: F. A. Brockhaus.
- Vambéry, H. (1867). *Čagataische Sprachstudien*. Leipzig: F. A. Brockhaus.
- Yılmaz, S. (t.y.). İngiliz casusu Armin Vambéry'nin Türkistan seyahatinde ona eşlik eden Özbek İshak Molla hakkında. *Türk Dünyası Araştırmaları Tarih Dergisi*.
- Shafranskaya, E. (t.y.). "Casus" Armin Vambéry. [İnternet kaynağı].
- Yunusov, G. O. (1935). *Özbek lehçelerinin sınıflandırılması üzerine bir deney*. Taşkent: Uzdavnashr. (Latin alfabesiyle).